



EXISTING PROBLEMS IN REDUCING TAX ARREARS IN ELECTRIC POWER ENTERPRISES

Axmedov Ashrafjon Axadovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

mustaqil izlanuvchisi

Abstract

This article analyzes the existing problems in reducing tax arrears in electric power enterprises. Particular attention is paid to issues related to financial stability, payment discipline, tariff policy, the high level of accounts receivable, and the effectiveness of tax administration mechanisms. The study also examines factors hindering the timely fulfillment of tax obligations, including rising costs of electricity production and supply, delays in payments, and imbalances between revenues and expenses. Based on the analysis, organizational and economic measures, as well as practical recommendations, are proposed to reduce tax arrears and improve the financial sustainability of electric power enterprises.

Keywords: Electric power enterprises, tax arrears, financial stability, tax administration, accounts receivable, tariff policy, payment discipline.

Introduction

Kirish

Elektr energetika tarmogʻi Oʻzbekiston Respublikasi iqtisodiyotining tayanch sohalaridan biri boʻlib, sanoat, qishloq xoʻjaligi, xizmatlar sohasi hamda aholi ehtiyojlarini barqaror elektr energiyasi bilan taʼminlashda muhim oʻrin tutadi. Soʻnggi yillarda mamlakatda elektr energiyasiga boʻlgan talabning ortib borishi, ishlab chiqarish hajmlarining kengayishi va infratuzilmani modernizatsiya qilish jarayonlari elektr energetika korxonalarini faoliyatining moliyaviy barqarorligini yanada dolzarb masalaga aylantirmoqda. Ushbu jarayonda soliq majburiyatlarining toʻliq va oʻz vaqtida bajarilishi davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Statistik maʼlumotlarga koʻra, Oʻzbekistonda 2024-yil yakunlariga koʻra elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi 78 milliard kVt/soatdan oshgan boʻlib, bu koʻrsatkich 2019-yilga nisbatan qariyb 25 foizga koʻpdir. Elektr



energetika sohasida faoliyat yuritayotgan yirik va o'rta korxonalar soni 100 dan ortiqni tashkil etadi. Ushbu korxonalar tomonidan yiliga trillionlab so'mlik mahsulot va xizmatlar realizatsiya qilinadi hamda davlat byudjetiga sezilarli miqdorda soliq to'lovlari amalga oshiriladi.

Shunga qaramay, elektr energetika korxonalarida soliq qarzdorligi muammosi hali ham dolzarflikicha qolmoqda. Rasmiy ochiq ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak, 2024-yil oxirida energetika tarmog'idagi ayrim korxonalarining jami soliq qarzdorligi bir necha trillion so'mni tashkil etgan. Soliq qarzdorligining shakllanishiga asosan iste'molchilar tomonidan elektr energiyasi uchun to'lovlarning kechiktirilishi, debitorlik qarzdorlikning yuqori darajasi hamda korxonalar moliyaviy oqimlarining nomutanosibligi sabab bo'lmoqda. Xususan, elektr energiyasi yetkazib beruvchi korxonalarda debitorlik qarzdorlik hajmi ayrim yillarda yillik tushumning 30–40 foizigacha yetgani kuzatilgan. Bu esa korxonalarining aylanma mablag'lariga salbiy ta'sir ko'rsatib, ish haqi, yoqilg'i-energetika resurslari, kredit majburiyatlari va soliq to'lovlari o'z vaqtida amalga oshirish imkoniyatlarini cheklamoqda. Natijada, soliq qarzdorligi zanjirli muammo sifatida yuzaga kelmoqda.

Bundan tashqari, elektr energetika sohasida tarif siyosati ham moliyaviy barqarorlikka bevosita ta'sir etuvchi omillardan biridir. Aholi va ayrim ijtimoiy sohalar uchun elektr energiyasi tariflarining uzoq vaqt davomida iqtisodiy jihatdan past darajada saqlanib kelinishi ishlab chiqarish tannarxi va realizatsiya narxi o'rtasida tafovut yuzaga keltirgan. Mazkur holat energetika korxonalarining daromad bazasini cheklab, ularning soliq majburiyatlarini to'liq bajarishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mamlakatda soliq intizomini mustahkamlash va soliq qarzdorligini kamaytirish maqsadida so'nggi yillarda qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, soliq ma'murchiligini raqamlashtirish, yagona billing tizimlarini joriy etish, soliq va kommunal to'lovlar o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ko'rilmoqda. Bu jarayonda elektr energetika korxonalarida soliq organlari bilan uzviy hamkorlikda ishlashga jalb etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-noyabrdagi PQ–364-son Qaroriga muvofiq, soliq qarzdorligini kamaytirishga qaratilgan yangi mexanizmlar joriy etilishi belgilandi. Mazkur qaror asosida 2026-yildan boshlab ayrim hududlarda soliq qarzdorligi mavjud bo'lgan jismoniy shaxslar va xo'jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan elektr energiyasi to'lovlari orqali qarzdorlikni undirish mexanizmlari sinov tariqasida tatbiq etilishi ko'zda tutilgan. Ushbu mexanizm soliq



tushumlarini oshirish va to'lov intizomini kuchaytirishga xizmat qilishi kutilmoqda. Shu bilan birga, amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, faqat ma'muriy choralar soliq qarzdorligini to'liq bartaraf etish uchun yetarli emas. Elektr energetika korxonalarining moliyaviy holatini yaxshilash, debitorlik qarzdorlikni qisqartirish, tarif siyosatini iqtisodiy asoslangan holda takomillashtirish hamda korxonalarda samarali moliyaviy boshqaruv tizimini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Elektr energetika korxonalarida soliq qarzdorligining shakllanishi va ortib borishiga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri iste'molchilar tarkibi va to'lov intizomi bilan bevosita bog'liqdir. Statistik kuzatuvlarga ko'ra, elektr energiyasi iste'molining katta qismi aholi va kichik biznes subyektlari hissasiga to'g'ri keladi. 2024-yil yakunlariga ko'ra, umumiy elektr energiyasi iste'molining qariyb 55 foizi aholi, 30 foizi sanoat, 10 foizi xizmatlar sohasi va qolgan qismi qishloq xo'jaligi subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan. Aholi va kichik biznes segmentida to'lovlarning kechiktirilishi holatlari nisbatan yuqori bo'lib, bu holat elektr energetika korxonalarining pul oqimlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Hududlar kesimida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, ayrim viloyatlarda elektr energiyasi uchun debitorlik qarzdorlik respublika o'rtacha ko'rsatkichidan sezilarli darajada yuqori. Masalan, ayrim hududlarda elektr energiyasi yetkazib beruvchi korxonalar debitorlik qarzdorligi yillik tushumning 35–45 foizigacha yetgan holatlar kuzatilgan. Bu esa korxonalarining moliyaviy barqarorligini izdan chiqarib, soliq majburiyatlarini bajarishda muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Soliq qarzdorligining tarkibiy tuzilmasini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, energetika korxonalarida asosan qo'shilgan qiymat solig'i, foyda solig'i va ijtimoiy soliq bo'yicha qarzdorliklar ustunlik qiladi. Ayrim yillarda ushbu uchta soliq turi umumiy soliq qarzdorligining 70 foizdan ortig'ini tashkil etgan. Bu holat korxonalarining aylanma mablag'lari yetishmasligi va daromadlarning kech tushishi bilan izohlanadi. Shuningdek, elektr energetika sohasida investitsion loyihalarning ko'payishi ham moliyaviy yuklamaning oshishiga olib kelmoqda. So'nggi besh yil davomida energetika tarmog'iga milliardlab AQSh dollari miqdorida investitsiyalar jalb etilgan bo'lib, ushbu loyihalar bo'yicha kredit majburiyatlari, foiz to'lovlari va amortizatsiya xarajatlari korxonalar moliyaviy oqimlarida muhim ulushni egallamoqda. Natijada, qisqa muddatli likvidlik muammolari yuzaga kelib, soliq to'lovlarning kechikishi ehtimoli ortmoqda.



Elektr energetika korxonalarida moliyaviy boshqaruv samaradorligi ham soliq qarzdorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayrim korxonalarda xarajatlarni rejalashtirish va daromadlarni prognozlash mexanizmlarining yetarli darajada takomillashmaganligi kuzatiladi. Bu esa real pul tushumlari bilan soliq majburiyatlari o'rtasida nomutanosiblik yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Statistika tahlillar shuni ko'rsatadiki, moliyaviy rejalashtirish darajasi past bo'lgan korxonalarda soliq qarzdorligi ko'rsatkichlari barqaror korxonalariga nisbatan 1,5–2 baravar yuqori.

Raqamlashtirish jarayonlari ham soliq qarzdorligini kamaytirishda muhim omil hisoblanadi. So'nggi yillarda yagona billing tizimlarining joriy etilishi elektr energiyasi hisobini yuritish va to'lovlarni nazorat qilish imkoniyatlarini kengaytirdi. Biroq amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ayrim hududlarda texnik nosozliklar, ma'lumotlar bazalarining to'liq integratsiya qilinmaganligi va inson omili bilan bog'liq muammolar hali ham saqlanib qolmoqda. Natijada, real to'lovlar va hisoblangan tushumlar o'rtasida tafovutlar yuzaga kelmoqda.

Soliq organlari va elektr energetika korxonalarida o'rtasidagi axborot almashinuvi darajasi ham muhim ahamiyatga ega. Statistika ma'lumotlarga ko'ra, soliq qarzdorligini erta aniqlash va oldini olish mexanizmlari samarali ishlayotgan hududlarda qarzdorlikning o'sish sur'ati ancha past bo'lmoqda. Aksincha, monitoring va nazorat tizimlari sust ishlayotgan hududlarda soliq qarzdorligi yildan-yilga ortib borayotgani kuzatilmog'da. Shuningdek, aholining to'lov qobiliyati va real daromadlari dinamikasi ham soliq qarzdorligiga bilvosita ta'sir ko'rsatadi. So'nggi yillarda inflyatsiya darajasi, kommunal to'lovlar ulushining oshishi va boshqa majburiy xarajatlarning ko'payishi aholi tomonidan elektr energiyasi uchun to'lovlarning kechiktirilishiga olib kelmoqda. Bu holat elektr energetika korxonalarida pul tushumlarining kamayishiga va natijada soliq majburiyatlarini bajarishda qiyinchiliklar yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Yuqoridagi statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, elektr energetika korxonalarida soliq qarzdorligi birgina soliq ma'murchiligi bilan bog'liq muammo emas, balki moliyaviy, tashkiliy va iqtisodiy omillarning o'zaro uyg'unlashuvi natijasida yuzaga kelayotgan murakkab jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonlarni chuqur o'rganish va ularning ta'sir darajasini aniqlash soliq qarzdorligini kamaytirishga qaratilgan samarali mexanizmlarni ishlab chiqish uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.



1-jadval Elektr energetika sohasida soliq qarzdorligiga ta'sir etuvchi asosiy ko'rsatkichlar (2021–2025-yillar)

Ko'rsatkichlar	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2025-yil
Elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi (mlrd kVt/soat)	66,5	70,4	74,1	78,0	80,0
Elektr energetika korxonalarini soni (ta)	92	95	97	100	102
Soha bo'yicha jami debitorlik qarzdorlik (trln so'm)	18,2	21,5	24,8	27,6	29,0
Debitorlik qarzdorlikning yillik tushumdagi ulushi (%)	32	35	38	41	43
Elektr energetika korxonalarining soliq qarzdorligi (trln so'm)	3,6	4,2	5,0	5,8	6,2
Soliq qarzdorligining o'sish sur'ati (%)	—	16,7	19,0	16,0	6,9
Aholi ulushidagi elektr energiyasi iste'moli (%)	52	53	54	55	56
Elektr energiyasi uchun to'lov intizomi (to'lovlar qamrovi, %)	92	91	90	89	90
Energetika sohasiga jalb etilgan investitsiyalar (mlrd AQSh dollari)	3,2	3,8	4,5	5,1	5,5

2021–2025-yillar davomida O'zbekiston elektr energetika sohasining asosiy iqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlari barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etgan. Jadval ma'lumotlariga ko'ra, elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi 2021-yildagi 66,5 mlrd kVt/soatdan 2024-yilda 78,0 mlrd kVt/soatga yetgan bo'lib, 2025-yilda ushbu ko'rsatkich 80,0 mlrd kVt/soatga yetishi prognoz qilinmoqda. Bu holat iqtisodiyot tarmoqlari va aholi tomonidan elektr energiyasiga bo'lgan talabning yildan-yilga ortib borayotganligini ko'rsatadi.

Elektr energetika sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni ham tahlil qilinayotgan davrda izchil oshib borgan. Xususan, 2021-yilda 92 ta bo'lgan elektr energetika korxonalarini soni 2024-yilga kelib 100 taga yetgan, 2025-yilda esa 102 tani tashkil etishi kutilmoqda. Bu ko'rsatkich energetika sohasida tarkibiy islohotlar, xususiy sektor ishtirokining kengayishi va yangi ishlab chiqarish quvvatlarining ishga tushirilishi bilan izohlanadi.

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar soha bo'yicha debitorlik qarzdorlikning sezilarli darajada ortib borayotganligini ko'rsatadi. 2021-yilda 18,2 trln so'mni tashkil etgan debitorlik qarzdorlik hajmi 2024-yilda 27,6 trln so'mga yetgan. 2025-yilga kelib esa ushbu ko'rsatkich 29,0 trln so'm atrofida shakllanishi kutilmoqda. Shu bilan birga,



debitorlik qarzdorlikning yillik tushumdagi ulushi 32 foizdan 43 foizgacha oshgani korxonalar moliyaviy oqimlarida jiddiy nomutanosiblik mavjudligini ko'rsatadi.

Elektr energetika korxonalarining soliq qarzdorligi ham tahlil qilinayotgan davrda barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etgan. 2021-yilda 3,6 trln so'mni tashkil etgan soliq qarzdorligi 2024-yilda 5,8 trln so'mga yetgan. 2025-yilda esa soliq qarzdorligi 6,2 trln so'm atrofida bo'lishi prognoz qilinmoqda. Soliq qarzdorligining o'sish sur'ati 2022–2023-yillarda nisbatan yuqori bo'lgan bo'lsa, keyingi yillarda ushbu sur'atning sekinlashishi kuzatilmoqda, bu esa soliq ma'murchiligi choralarning ma'lum darajada samara berayotganligini ko'rsatadi.

Aholi ulushidagi elektr energiyasi iste'moli 2021-yildagi 52 foizdan 2025-yilda 56 foizgacha oshgan. Bu holat aholining turmush darajasi, maishiy texnika vositalaridan foydalanish ko'lami va urbanizatsiya jarayonlari bilan bevosita bog'liqdir. Shu bilan birga, to'lov intizomi ko'rsatkichlarining 92 foizdan 89 foizgacha pasayishi ayrim yillarda iste'molchilar tomonidan to'lovlarning kechiktirilishi kuchayganligini anglatadi.

Energetika sohasiga jalb etilgan investitsiyalar hajmi ham yildan-yilga oshib borgan. 2021-yilda 3,2 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan investitsiyalar hajmi 2024-yilda 5,1 mlrd AQSh dollariga yetgan va 2025-yilda 5,5 mlrd AQSh dollari miqdorida bo'lishi kutilmoqda. Mazkur investitsiyalar yangi quvvatlarni ishga tushirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va energiya samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda, biroq qisqa muddatda korxonalar moliyaviy yuklamasini oshirib, likvidlik muammolarini yuzaga keltirishi mumkin.

Umuman olganda, jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlar elektr energetika sohasida ishlab chiqarish hajmlari va investitsiyalar o'sib borayotgan bir paytda, debitorlik va soliq qarzdorligi muammosi ham parallel ravishda saqlanib qolayotganligini ko'rsatadi. Ushbu holat sohada moliyaviy boshqaruv, to'lov intizomi va soliq ma'murchiligi mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurligini anglatadi.

Elektr energetika korxonalarida soliq qarzdorligini kamaytirish bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, mazkur muammo asosan institutsional va boshqaruv mexanizmlarining samaradorligi bilan chambarchas bog'liqdir. Rivojlangan mamlakatlarda energetika korxonalari faoliyati bozor tamoyillari asosida tashkil etilgan bo'lib, moliyaviy intizom va soliq majburiyatlariga rioya etish korporativ boshqaruvning ajralmas qismi sifatida qaraladi. Masalan, Germaniya va Janubiy Koreyada elektr energetika korxonalari soliq organlari bilan to'liq



integratsiyalashgan raqamli platformalar orqali ishlaydi. Ushbu platformalar orqali elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmlari, realizatsiya tushumlari va soliq majburiyatlari real vaqt rejimida monitoring qilinadi. Natijada, soliq qarzdorligi yuzaga kelishining dastlabki bosqichidayoq aniqlanib, profilaktik choralar ko‘riladi. Bu esa qarzdorlikning tizimli muammoga aylanishini oldini oladi.

Xorijiy tajribada to‘lov intizomini ta‘minlashda iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlariga alohida e‘tibor qaratiladi. Jumladan, soliq majburiyatlarini o‘z vaqtida va to‘liq bajarayotgan energetika korxonalariga soliq stavkalarini pasaytirish, tezlashtirilgan amortizatsiya, imtiyozli kreditlash kabi moliyaviy instrumentlar qo‘llaniladi. Bu esa korxonalarni soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslikka undaydi. Shuningdek, xorijiy mamlakatlarda debitorlik qarzdorlikni boshqarish masalasi qat‘iy moliyaviy standartlar asosida tartibga solinadi. Elektr energiyasi iste‘molchilari uchun qarzdorlikning maksimal darajalari belgilanib, ushbu chegaradan oshgan holatlarda avtomatlashtirilgan cheklovlar yoki moliyaviy sanksiyalar qo‘llaniladi. Natijada, energetika korxonalarining pul oqimlari barqaror saqlanadi va soliq to‘lovlari uchun zarur moliyaviy resurslar ta‘minlanadi.

Tarif siyosati ham xorijiy tajribada soliq qarzdorligini kamaytirishga xizmat qiluvchi muhim omil hisoblanadi. Ko‘plab davlatlarda elektr energiyasi tariflari ishlab chiqarish tannarxi, investitsion xarajatlar va soliq yuklamasini hisobga olgan holda shakllantiriladi. Bu korxonalarining daromad bazasini kengaytirib, soliq majburiyatlarini bajarish imkoniyatlarini oshiradi. Bundan tashqari, xorijiy tajribada energetika sohasida xususiy kapital ulushining yuqoriligi va riskga asoslangan audit tizimlarining joriy etilgani kuzatiladi. Ushbu yondashuv korxonalarni moliyaviy intizomga rioya etishga majbur etib, soliq qarzdorligining oldini olishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur tajribalar O‘zbekiston sharoitida elektr energetika korxonalarida soliq qarzdorligini kamaytirishga qaratilgan islohotlarni ilmiy asosda takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, elektr energetika korxonalarida soliq qarzdorligining shakllanishi va ortib borishi ko‘p omilli iqtisodiy jarayon bo‘lib, u asosan debitorlik qarzdorlikning yuqori darajasi, pul oqimlarining beqarorligi, tarif siyosatining iqtisodiy jihatdan yetarlicha asoslanmaganligi hamda moliyaviy boshqaruv tizimlari samaradorligining pastligi bilan izohlanadi. Tahlillar shuni



tasdiqlaydiki, elektr energiyasiga bo'lgan talab va ishlab chiqarish hajmlari oshib borayotgan sharoitda ham soliq qarzdorligining saqlanib qolishi sohada moliyaviy intizom yetarli darajada ta'minlanmaganini ko'rsatadi. Ayniqsa, aholi va kichik biznes segmentida to'lov intizomining nisbatan pastligi energetika korxonalarining joriy likvidligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, soliq majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish imkoniyatlarini cheklamoqda.

Shu bilan birga, xorijiy davlatlar tajribasi elektr energetika sohasida soliq qarzdorligini kamaytirishda raqamlashtirish, avtomatlashtirilgan monitoring tizimlari, iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlari hamda bozor tamoyillariga asoslangan tarif siyosatining yuqori samara berishini ko'rsatmoqda. Ushbu yondashuvlar soliq qarzdorligini faqat ma'muriy choralar orqali emas, balki tizimli va profilaktik mexanizmlar asosida bartaraf etish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston sharoitida elektr energetika korxonalarida soliq qarzdorligini kamaytirish uchun moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, debitorlik qarzdorlikni qisqartirish, soliq ma'murchiligini takomillashtirish hamda samarali korporativ boshqaruv tizimini joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Takliflar

Elektr energetika korxonalarida soliq qarzdorligini izchil kamaytirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Soliq va billing tizimlarini to'liq integratsiya qilish. Elektr energiyasi iste'moli, to'lovlar va soliq majburiyatlari bo'yicha yagona raqamli platformani joriy etish orqali real vaqt rejimida monitoringni ta'minlash va soliq qarzdorligini erta aniqlash mexanizmlarini kuchaytirish lozim.
2. Debitorlik qarzdorlikni kamaytirish bo'yicha qat'iy mexanizmlarni joriy etish. Elektr energiyasi iste'molchilari uchun qarzdorlikning maksimal chegaralarini belgilash hamda belgilangan limitdan oshgan hollarda avtomatlashtirilgan cheklov choralari qo'llash orqali pul oqimlarining barqarorligini ta'minlash zarur.
3. To'lov intizomini rag'batlantirish tizimini takomillashtirish. Elektr energiyasi va soliq to'lovlarini o'z vaqtida amalga oshirayotgan iste'molchilar va xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun chegirmalar, bonuslar yoki preferensiyalar berish orqali ijobiy rag'batlantirish mexanizmlarini kengaytirish maqsadga muvofiq.



4. Tarif siyosatini iqtisodiy jihatdan asoslash. Elektr energiyasi tariflarini ishlab chiqarish tannarxi, investitsion xarajatlar va soliq yuklamasini inobatga olgan holda bosqichma-bosqich qayta ko‘rib chiqish energetika korxonalarining daromad bazasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

5. Moliyaviy boshqaruv va rejalashtirishni kuchaytirish. Elektr energetika korxonalarida zamonaviy moliyaviy rejalashtirish, pul oqimlarini prognozlash va moliyaviy risklarni boshqarish tizimlarini joriy etish soliq majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarishga xizmat qiladi.

6. Riskka asoslangan soliq nazoratini keng joriy etish. Soliq qarzdorligi yuzaga kelish ehtimoli yuqori bo‘lgan korxonalarni aniqlash va ularga nisbatan profilaktik nazorat choralarini kuchaytirish samarali natija beradi.

7. Korporativ boshqaruv tamoyillarini rivojlantirish. Shaffoflikni oshirish, xususiy kapital ishtirokini kengaytirish va mas’uliyatli boshqaruv mexanizmlarini joriy etish orqali energetika korxonalarida moliyaviy intizomni mustahkamlash mumkin.

Mazkur takliflarning amaliyotga joriy etilishi elektr energetika korxonalarida soliq qarzdorligini izchil kamaytirish, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash hamda davlat byudjeti daromadlarini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Moliyaviy barqarorlik sharhi. – Toshkent, 2025. – 120 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida: Farmon PF–27. – Toshkent, 2023.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda soliq siyosati va soliq ma’muriyatchiligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: Farmon PF–21. – Toshkent, 2023.
4. Qodirov A. A. Soliq siyosatini takomillashtirish va davlat byudjeti daromadlarini barqarorlashtirish masalalari // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*. – 2021. – №5. – B. 45–52.
5. Yuldashev B. E. Soliq tizimini raqamlashtirish sharoitida davlat daromadlarini boshqarish mexanizmlari // *Moliya va bank ishi*. – 2022. – №4. – B. 33–40.



-
6. International Monetary Fund (IMF). Legislating for Fair and Effective Tax Collection. – Washington, DC: IMF, 2024. – 76 p.
 7. Mayburov I. A. Nalogovaya politika i upravleniye nalogovoy zadolzhennost'yu v sovremennoy ekonomike. – Moskva: INFRA-M, 2021. – 256 s.
 8. OECD. Tax Administration 2023. – Paris: OECD Publishing, 2023. – 290 p.
 9. OECD. Tax Debt Management Maturity Model. – Paris: OECD Publishing, 2025. – 98 p.
 10. Pankov V. G. Gosudarstvennaya nalogovaya politika: teoriya i praktika. – Moskva: Yurayt, 2022. – 312 s.